



## OT SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA LUG'ATDAN FOYDALANISH

**Nazarova  
Gulshodabonu  
Jahongir qizi**

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi  
gulshodan893@gmail.com*

Abstract

Ushbu maqolada O'zbekistonning boshlang'ich ta'limidagi o'zgarishlari, o'quvchilarga ot so'z turkumi va lug'atning nimaligini tushuntirish va ot so'z turkumini o'qitishda lug'atdan foydalanish usullari, yangi so'zlarni o'rganish va ularning ma'nosini tushunish, hikoya ichidagi notanish so'zlarni topib o'quvchiga tushuntirish va lug'at ustida ishlash usullari yoritilgan.

**Keywords :** ot so'z turkumi, lug'at, tarbiyaviy maqsad, boshlang'ich ta'lim, hikoya, ta'lim-tarbiya, dars jarayoni, so'z, ma'no.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda bir nechta o'zgarishlar mavjud. Bu o'zgarishlar ta'limning metodikalari, o'quv usullari, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar, texnologiyalar va o'quv materiallari sohasini o'z ichiga oladi. MMTV yuqori sinflarda fanlar soni qisqarishi, boshlang'ich sinflar uchun informatika fani kiritilishi va maktablar boshqaruvida kutilayotgan o'zgarishlar haqida xabar berdi. "Gazeta.uz" kolumnisti Komil Jalilovning yozishicha, ta'limdagi har qanday yangilik chuqur va ilmiy asoslangan tahlillarga tayanishi lozim.

"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", – deydi davlatimiz rahbari.

"Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz. Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, mutlaqo yanglishadi. Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin", - dedi davlatimiz rahbari.

Quyidagi o'zgarishlar boshlang'ich ta'limda kuzatilishi mumkin:

Interaktiv o'quv usullari: Boshlang'ich ta'limda interaktiv o'quv usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usulda o'quvchilar faoliyatga asoslangan, o'quvchilarga o'zlarining bilimini oshirish va fikrlarini ifodalashga imkon beruvchi mashg'ulotlar va

vazifalar keng qo'llaniladi. O'quvchilar o'zlarining o'zlarini o'rganish jarayonida ish bajarish, muhokama qilish va yaratuvchanlikka yo'naltirishadi.

□ Texnologiyalar foydalanish: Texnologiyalar boshlang'ich ta'limning asosiy qismini tashkil etmoqda. O'quvchilar uchun kompyuterlar, internet, interaktiv darsliklar, elektronik resurslar va mobil ilovalar keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash va o'zlashtirishga yordam beradi.

□ Kritik tasavvurlar va yaratuvchanlik: Boshlang'ich ta'limda kritik tasavvurlar, muhokama qilish va yaratuvchanlikka e'tibor keltirib o'tiladi. O'quvchilarga muhim savollar berish, fikrlarni ifodalash va o'zlarining fikrlarini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati ta'lim sohasidagi rivojlanishda bir nechta ishlar amalga oshirayotganini bildirish mumkin. Bu ishlarning asosiy maqsadi ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yaxshi sharoitlar yaratish va ta'lim tizimining barcha taraflari bo'yicha yangiliklarni keltirishdir.

Shaxs narsa predmet va boshqa narsalarning nomini ifodalovchi so'zlar ot deyiladi. 1—2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishining barcha bosqichlarida hal qilinadi. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga oigan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi.

Lug'at—imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini kengaytirishning muhim manbai. Uning quyidagi ma'nolarini ko'rish mumkin:

1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, leksika;

2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, iboralar va boshqalar) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitob. Lug'atlar ma'naviy madaniy sohada muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi.

Ona tili hamda o'qish darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga nutq

madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish 1-sinfdanoq boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Dars jarayonida lug'at bilan ishlash jaarayonida quyidagi tavsiyalarga rioya qilinsin:

- 1) Matndan tushunarsiz so'zlarni topib o'qituvchi doskaga yozishi
- 2) Doskadagi so'zlarni bolalarga o'qitib qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlash
- 3) So'zning ma'nosini yozish
- 4) Shu so'zlar yordamida gaplar tuzish
- 5) Sinonimlari bilan ham tanishtirish
- 6) O'qituvchini stolida o'zbek tilini izohli lug'ati turishi o'quvchilar bilan ishlashda katta yordam beradi va natijasi ham yuqori bo'ladi.

7) Lug'at diktantlaridan foydalanish

Misol uchun 1-sinf ona tili kitobidagi 2-mashq xayrli ish hikoyasini olaylik

Birinchi qilinadigan ish notanish so'zlarni doskaga yoziladi va o'quvchilardan bu so'zlarga so'roq berib ko'ringlarchi deyiladi

Doskadagi so'zlar:

Xaskash. javdirab, jiqqa

Bolalar so'zlarni o'qiydilar xas-kash 2 bo'g'indan iborat ekan, xaskash nima? So'rog'iga javob bo'ladi deydilar. So'ngra ustoz barakalla o'quvchilarim kim nima? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ot deyiladi. Doskadagi so'zlar ot so'z turkumiga mansub ekan. Ot so'z turkumiga kirishini bilib oldik endi keli ng bolalar uning ma'nosi va manodoshlari bilan tanishamiz. Doskaga yozilgan lug'atlar yoniga uning ma'nosi ham yoziladi:

1. Xaskash—xas tortuvchi, to'plovchi ya'ni xas cho'p va shu kabilarni yeg'ish bir joyga to'plash uchun ishlatiladi.

2. Javdirab—iltijo bilan qaramoq, termulmoq manodoshi- multillab g'amgin ko'z bilan qarash

3. Jiqqa—juda, judayam ma'nodoshi - rosa

Bu mashqda berilgan hikoyani o'qishdan maqsad:

Birinchidan, bolalarni mahmudaga o'xshab hayvonlarga, odmlarga yordam qo'lini cho'zishiga o'rgatish ya'ni ularni hayrli ishlar qilishga undash.

Ikkinchidan, bir darsni o'zida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy talim berish

Uchinchidan matndagi notanish so'zlarni bolalarga o'rgatish ularni so'z boyligini o'stirish

Yana bir qo'shimcha mashq

Bu mashqda (Soatsoz) so'zining lug'aviy ma'nosini o'rganamiz bolajonlar.

Soatsoz so'zi doskaga yoziladi va so'roq beriladi ot so'z turkumiga mansubligi aniqlaniladi va uning ma'nosi o'qituvchi tomonidan yoziladi.

Soatsoz—soat yasovchi, tuzatuvchi ya'ni buzulgan soatni tuzatadigan inson. B u ham bir kasb turiligi haqida tushuntiriladi.

O'qituvchi shu o'rinda kasblar haqida ham to'xtalib gapirib ketadi

O'quvchilarga soatsoz so'zini talaffuz qildirib ko'riladi va tahlil qilinadi:

Soatsoz so'zi 3 bo'g'inli: so-at-soz, 7 ta tovush, 7 ta harfdan iboratligi bolalarga tushuntiriladi s-o-a-t-s-o-z.

Soat-o‘zak, soz-so‘z yasovchi qo‘shimcha.

Keyingi ish turi 3 ta zvenodagi o‘quvchilarni 3 guruhga bo‘lib olinadi va har bir guruhdagi o‘quvchilar soatsoz so‘zi ishtirokida 3-4 ta gap tuzadilar.

Bu mashqni bajarishdan maqsad:

Avvalom bor soatsoz so‘zini ma’nosini bollarga o‘rgatish va kasblar haqida ma’lumot berish va shu o‘rinda hamma kasblarni birma bir tanishtirib ularni qiziqishini ham bilib ota-onasiga habar berish, ikkinchidan bu so‘zni tahlil qilish bunda takrorlashdan ham foydalaniladi, so‘zni ma’nosini bilish bilan birga uni taxlil ham qilinadi tovush, harf bo‘g‘inlarni o‘quvchilar ni yodiga solinadi

M: Mening amakim soatso‘z bo‘lib ishlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug‘atlar bilan ishlash, o‘quvchilarga so‘z ma’nosini tushintirish o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttiradi, dunyoqarashini kengaytirib, ularning kreativligini rivojlantiradi. Lug‘at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o‘qish darslarida ham reja asosida izchil olib borish zarur. Boshlang‘ich sinflar uchun izohli, imlo lug‘atlarining yaratilmaganligi lug‘at ustida olib boriladigan ishlarni to‘g‘ri uyushtirishda ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat’iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o‘quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e’tibor, qat’iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/31/schools/>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/3924>
3. <https://uzreport.news/politics/biz-kop-vaqt-yoqotganmiz-shavkat-mirziyoyev-talim-tarbiya-sohasidagi-islohotlar-haqida-gap>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lug%CA%BBat>
5. 1-sinf ona tili darsligining I-qismi 2-mashq 57-bet.